



MADANIYATNING SHAKLLANTIRISHDA OILANING MUHIM AHAMIYATI

Nosirova Dilfuza Nabiyeva

Andijon viloyati Yuridik texnikumi

yuristlar uchun xorijiy til o'qituvchisi 3 chi darajali yurist

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7428508>

ARTICLE INFO

Received: 30th November 2022

Accepted: 10th December 2022

Online: 12nd December 2022

KEY WORDS

Jamiyat, jarayon, oilaviy qadriyatlar, madaniyat, oila, shakllanish, qonuniy baza.

ABSTRACT

Ushbu maqolada muallif tomonidan oilaviy qadriyatlar tizimi aosida madaniyatning shakllantirishda uning muhim ahamiyati ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi. Shuningdek, eng avvalo oila va nikoh munosabatlarini takomillashtirishning qonuniy bazasi yaratilib, oila jamiyatning ustivor yo'nalishiga aylantirildi va uni muhofaza qilishga qaratilgan qator qonunlar va qonun osti hujjatlarni ham qabul qilinganligini, shu bilan bir qatorda oila maktablariga ham davlatimiz tomonidan katta etibor qaratilmoqda. Ko'p asrlar davomida oila har qanday tsivilizatsiyalashgan jamiyat ijtimoiy tuzilishining zaruriy tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Jamiyat oiladan boshlanadi, shaxsning shakllanishi unda sodir bo'ladi.

Jamiyat, oila va shaxs o'rtasidagi munosabatlarning ko'p asrlik tarixi oilaning "jamiyat hujayrasi" sifatida mavjudligining maqsadga muvofiqligini isbotladi, ammo so'nggi paytlarda oila inqirozi haqidagi asosli xabarlar va hatto, uning parchalanishi borgan sari balandroq eshutilmoqda; butun dunyoda turmush o'rtoqlar, oilalar, bolalarga yordam ko'rsatish masalalari dolzarb bo'lib qoldi, oila, bolalik, otalik va onalikni himoya qilishni nazarda tutuvchi hujjatlar to'plamini yaratish vazifasi kun tartibidan olib tashlanmadi. Ular bugungi kunda barcha bo'g'inlarda millat salomatligini asrash, an'anaviy oilaviy qadriyatlarni tiklash va mustahkamlash borasidagi muammolarni hal etish ustida ishlamoqda. Bir necha yillardan beri qonunchilar va

ekspertlarning diqqat markazida bo'lib kelayotgan demografik inqirozni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan muhim choratadbirlar oilani ijtimoiy institut sifatida saqlab qolish va qo'llab-quvvatlashga umid baxsh etmoqda. Ammo oilada avvalgi obro'-e'tibor tiklanmasa, bu choralarning barchasi etarli bo'lmaydi [4]. Oila - qarindoshlik munosabatlariga asoslangan ijtimoiy guruh bo'lib, uning a'zolari birgalikda yashash, farzandlarni dunyoga keltirish va tarbiyalash orqali birlashadi. Oila insonning tashqi dunyo bilan aloqasidagi eng muhim bo'g'in bo'lib, jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuviga hissa qo'shadi. Oila uzoq vaqtdan beri ijtimoiy tartib asos bo'lgan poydevor hisoblanganiga qaramay, u hali ham



o'rganilmagan institutlardan biri bo'lib qolmoqda.

A.E. Ruziyev oilani "Er-xotinlar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning tarixan o'ziga xos tizimi, a'zolari nikoh yoki qarindoshlik, umumiy hayot va o'zaro ma'naviy javobgarlik bilan bog'liq bo'lgan, ijtimoiy va jamiyatning aholining jismoniy va ma'naviy takror ishlab chiqarishga bo'lgan ehtiyoji tufayli yuzaga keladigan kichik ijtimoiy guruh sifatida ta'riflaydi" [5]. U.X. Adambayev va A.D. Esonova oila - bu umumiy faoliyat bilan birlashtirilgan va aholining ko'payishini, oilaviy avlodlar davomiyligini, bolalarni ijtimoiylashtirishni va ularni qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradigan, nikoh ittifoqi va oilaviy munosabatlarga asoslangan a'zolarining mavjudligi kichik ijtimoiy guruh yoki odamlar jamoasi deb ta'riflaydi [1].

F. M. Tursunov oila va uning qadriyatlarini samarali o'rganish uchun bizning tadqiqotimiz uchun samarali bo'ladigan yangi oila paradigmasini ishlab chiqish zarur deb hisoblaydi. Uning mohiyatini u quyidagicha izohlaydi: "Bu yerda, birinchi navbatda, skeptiklarning oila paradigmasi oilaning ijtimoiy munosabatlardagi o'zini-o'zi ta'minlovchi va hukmron roldan iboratligi haqidagi g'oyalarini rad etish zarur. Aksincha, jamiyatning roli oilaviy munosabatlarda mavjud bo'lgan altruizm va sadoqat bilan boyitib, ularni ijtimoiy o'zaro ta'sirning yangi darajalarida yangi qobiliyatga jalb qilish uchun qayta ishlanishi kerak" [4]. Oila paradigmasi jamiyat va shaxs, fuqarolik jamiyati va davlat haqidagi fundamental g'oyalar to'plamini o'z ichiga olgan ijtimoiy olamning fundamental rasmini aks ettiradi, ya'ni ma'lum bir tarixiy davrning eng muhim tushunchalari, nazariyalari va oqimlarining asosini tashkil etuvchi

majmua. Oila paradigmasi ma'lum bir tarixiy davrda shaxslar amal qiladigan qadriyatlar tizimini ham aks ettiradi.

Oila instituti doimo o'zgarib turadi, bu jamiyatning o'zi rivojlanishi, ijtimoiy ehtiyojlarning o'zgarishi bilan belgilanadi. Biroq, barcha bu o'zgarishlar bilan jamiyat o'zining tarixiy rivojlanishining har qanday bosqichida aholining ko'payishiga muhtoj, shuning uchun uni ushbu takror ishlab chiqarishni tashkil etish shakli sifatida oila qiziqtiradi.

Oila rivojlanishining turli bosqichlarida o'ziga xos qadriyatlar, me'yorlarning o'ziga xos xususiyatlariga ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, aniq tarixiy, etnik, diniy omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar oilaga bevosita emas, balki madaniy qadriyatlar orqali ta'sir qiladi. M. S. Nishonov shunday yozadi: "Vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadigan me'yorlar va an'analar ham oilaviy hayot tsiklining u yoki bu bosqichiga qarab farqlanadi. Mamlakatimizning turli hududlarida nikoh-oila munosabatlari sohasidagi qadriyatlar va normalarning sezilarli darajada farqlanishi, shuningdek, ularni buzganlik uchun norasmiy sanksiyalar kuzatilmoqda. Bu ko'p jihatdan ko'plab manbalar, jumladan, diniy xurofotlar bilan oziqlangan an'ana va urf-odatlar bilan bog'liq" [3].

Qadriyatlar odamlarning xulq-atvorini, odamlarga xos bo'lgan me'yor va qoidalarni belgilaydi. Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida qadriyatlarining o'ziga xos ierarxiyasi shakllanadi, bu qiymat yo'nalishlarida ifodalanadi. Qadriyat yo'nalishlari - bu o'zini tutish va ehtiyojlarni qondirishning ma'lum usullarini ongli ravishda afzal ko'rish yoki rad etish. Ular harakatlar motivatsiyasiga, odamlarning



dunyoqarashiga ta'sir qiladi. Oila inson uchun eng muhim qadriyatlardan biri bo'lib qoladi. Qadriyatlar deganda shaxs, guruh, jamiyatning muayyan ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy ob'ektning mulki tushuniladi.

Oilaviy qadriyatlar qadriyatlar tizimida muhim rol o'ynaydi. Oilaviy qadriyatlar - bu jamiyatda o'stirilgan oila haqidagi g'oyalar majmui bo'lib, ular oilaviy maqsadlarni tanlashga, hayotni tashkil etish va o'zaro munosabatlarga ta'sir qiladi [3].

Oila tomonidan umumiy qadriyatlar shaxsni o'rab turgan ijtimoiy muhitning ob'ektiv mavjud qadriyatlarini aks ettiradi. Ushbu qadriyatlar oila a'zolari tomonidan tan olinadi. Qadriyatlar insonning oiladagi xulq-atvoriga ta'sir qiladi va oila oilaviy qadriyatlarni amalga oshirishning bir usuli bo'lib xizmat qiladi.

Oilaviy qadriyatlar - bu muhim, qadrlil, barcha oila a'zolari tomonidan hurmat qilinadigan, ularning manfaatlarining umumiy maydoni. Aksariyat odamlar uchun oilaviy qadriyatlar taxminan bir xil: sevgi, ota-onalik, sadoqat, ishonch, ajdodlar bilan aloqa, uy. "Oilaviy qadriyatlar - bu nikoh-ota-ona-qarindoshlik rishtalari bilan bog'liq bo'lgan yagona qo'shma faoliyatga asoslangan odamlar jamoasiga tegishli ob'ektlar ahamiyatining ijobiy va salbiy ko'rsatkichlari bo'lib, ushbu ob'ektlarning insoniyat sohasiga hayoti, inson manfaatlari, ehtiyojlari, ijtimoiy munosabatlar jalb qilinishi bilan bog'liq. Qadriyatlar bolaga erta yoshda singdiriladi. Ularning tizimi butun jamiyatning mafkurasi va madaniyati bilan shakllansada, bolaning oilada oladigan bevosita tajribasi katta ahamiyatga ega" [4].

Oilaviy qadriyatlarining tasnifi oilaning ta'rifi asosida ham amalga oshirilishi

mumkin. Oilaviy qadriyatlarni oila ichidagi muloqot elementlariga bo'lish mumkin. Oilaviy qadriyatlar uchta guruhi mavjud:

- 1) nikoh bilan bog'liq qadriyatlar;
- 2) qadriyatlar, bog'lanishlar
- 3) qarindoshlik bilan bog'liq qadriyatlar.

Nikohning xilma-xil qadriyatlari orasida nikoh qiymati, turmush o'rtoqlarning teng huquqliligi yoki ulardan birining hukmronligi qiymati, turli jinsiy rollarning qadriyatlari kabi oilada, turmush o'rtoqlar o'rtasidagi shaxslararo muloqotning ahamiyati, turmush o'rtoqlarning o'zaro yordami va o'zaro tushunishi asosiy qadriyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ota-onalikning asosiy qadriyatlariga bolalarning ko'p yoki kam farzandli bo'lish, shuningdek, oilada bolalarni tarbiyalash va ijtimoiylashtirish qiymati kiradi. Qarindoshlik qadriyatlariga qarindoshlarga ega bo'lish (masalan, aka-uka va opa-singillar), qarindoshlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va o'zaro yordam qiymati, katta yoki yadroviy oilaning qiymati kiradi [3].

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashtirish davriga kelib ham O'zbekiston o'z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e'zozlashda, deb bilayotgani yuqoridagi an'anaviy qadriyatlarimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Oila paydo bo'lishi va rivojlanishini ilmiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, oilaning tashkil bo'lishida asosiy omil - nikoh hisoblanadi. O'z navbatida, umuminsoniy va milliy oilaviy qadriyatlarni tahlil qilish asosida zamonaviy, namunali oila mezonlarini belgilash hamda "Oila jamiyat va davlat himoyasida" konstitutsiyaviy printsiplarini



keng targ'ib etish va jamiyatga singdirish masalalariga kompleks yondashish faoliyatimizda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan bir qatorda unutmashimiz kerakki, nikoh bu insoniyat tarixining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan. Jamiyat taraqqiy etib borishi bilan uning shakli o'zgarib, o'zi esa mustahkamlanib zamon tasirida shaklini o'zgartirmoqda.

O'zbekistonda oila va nikoh borasidagi o'zgarishlar yil sayin ijobiy tus olayotganligini tan olish zarur. Bugun yurtimizda demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xo'sh bugungi jamiyatimizda oila, turmush, tarbiya, munosabat tushunchalari qanchalik ahamiyat kasb etmoqda, yoki ularning darajasi qanday bo'lyapti degan savol bor. Bunday fikr yuritishimning sababi, aslida o'zbekning qoniga singigan ushbu tushuncha biroz unutilayotgandek nazarimda. Shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiya asrida kundun-kunga, shiddat bilan ma'lumotlar bazamizga yangi xabarlarini oqib kelayotganini guvohi bo'lyapmiz. Unda turli xildagi yovuzliklar, tajovuzlar, xattoki qabixliklar ham avj olmoqda. Xa adashmadingiz ana shunday nohush xolatlarni ko'ryapmiz aksariyat hollarda. Masalan, o'z farzandini dunyoga keltirib, xojatxonaga tashlab yuborilgani, yoki bo'lmasam yana biri dunyoga kelgan go'dakni shavqatsizlarcha daryoga tosh bilan bog'lagan holda cho'ktirib nobud qilinayotgani. Axir bu qanchalar yaxshilik. Xattoki xayvonlar ham o'z norasidasini yalab-yulqab uni oyoqqa turg'azadi. Bunday holatning navbatdagisi undanada ayanchli, erkak o'zning farzandini dunyoga keltirgan ayolini shavqatsizlarcha

kaltaklaydi. Kuchli zarblardan so'ng xali tug'ruqdan kegin chillasi ham chiqmagan ayol bu zo'ravonlikni ko'tara olmay hayotdan ko'z yumadi. Xo'sh savol tug'iladi? Sabab nima, nima uchun bunchalik tubanlik, bunchalar zo'ravonlik va shavqatsizlik. Bir yosh ayol bu dunyoni tark etdi. Norasida go'dak ona taftini xis qilmay yetim bo'lib qoldi. Ota esa jazo uchun qamaldi. Axir nima uchun? Nega? Degan savollar o'rtab yuboradi insonni. Shavqatsiz otaga qarata aytgim keladi: axir shular sening oilang ediku. Shular seni e'zozlar, issiq va sovug'ingdan xabar olar. Keksaygandingda oldingga bir kosa ovqat olib keladigan g'amho'rlaring ediku.

Yuqoridagi kabi vaziyatlarni eshita turib, qaerga bu olam odamlari ketayoganini ularning fikrlash tushunchalari juda zaif bo'lib ulgurganiga afsuslar aytaman. Shu bois ota-bobolarimiz oilaga juda katta e'tibor bilan qarashgan. Buyuk allomalarimiz Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovusdan tortib Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va boshqalargacha o'z asarlarida oilaviy masalalar, xususan, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-ona, bobo-buvining o'rni, komil va vatanparvar shaxsni yetishtirishda bu muhim ijtimoiy institutning roliga alohida yondashib, ibratli hikoyatlar, rivoyatlar, farzandlarga maktublar, hikmatli so'zlar, she'riy satrlar orqali pand-nasihatlarni, hayotiy xulosalar yozib qoldirganlar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlarimiz ham odob-axloqi go'zal, jismonan va ma'nan yetuk avlodni tarbiyalashning yagona yo'li — barqaror oila qurish ekanini, oilani



mustahkamlamasdan davlat va jamiyat taraqqiyotiga erishib bo'lmashligini ta'kidlashgan [2].

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, boy ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat hamda an'analarimizdan ayonki, har qanday zamon va makonda ham oila biz uchun muqaddas qadriyat sanalgan.

Binobarin, tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan.

References:

1. Adambayev U.X., Esonova A.D. (2022). Sog'lom oilada madaniy tarbiyaning shakllantirish. *Scientific progress*, 3 (3), 502-505.
2. Захарова В. А. (2021). Роль семьи в формировании и развитии экологического поведения молодежи. *Гуманитарий Юга России*, 10 (6), 157.
3. Nishonov M. S. Oila va postindustrial tsivilizatsiya // *Voprosy filosofii*. MGU. 2021. No 12.
4. Tursunov F.M. Oila sotsiologiyasi [Sociologiya sem'i]. M.: Nauka, 2019.
5. Ruziyev A. E. (2021). Oilada yoshlarni tolerant madaniyatli qilib tarbiyalashda besh muhim tashabbus ijtimoiy-psixologik omil sifatida. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (3), 242-252.
6. Gulamovna, U. S. (2022). Analysis of Utkir Khashimov's "Dard" Story. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(3), 8-10.
7. Gulamovna, U. S. (2022). O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA INSONIY FAZILATLARNING IFODALANISHI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(4), 106-111.
8. USMONOVA, S. (2022). O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA URUSHGA BO'LGAN NAFRAT G'OYALARINING AKS ETTIRILISHI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(12), 908-911.
9. Usmonova, S. G. (2022). THE IMPORTANCE OF THEMES IN THE WORKS OF UTKIR KHOSHIMOV. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(6), 116-118.
10. Nosirova, D. N. (2022). THE ROLE OF FOREIGN LANGUAGES IN CREATING A NEW ENLIGHTENED SOCIETY OF UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 364-372.
11. Abdurasulov, M., Rasulov, S. B., & Nosirova, D. N. (2022). LAWS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON APPEALS OF INDIVIDUALS AND LEGAL ENTITIES. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 412-416.
12. Nosirova, D. N. (2022). XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA O'QISH, TINGLASH, YOZISH VA GAPIRISHNING AFZALLIKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(7), 648-655.
13. Nosirova, D., & Nasirdinov, S. (2022). HORIJIY TILLARNI BILISH KELAJAKKA YO'L. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(12), 113-116.
14. Nosirova, D. M. (2021). PECULIARITIES OF LETTERS IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES. *Scientific progress*, 2(8), 752-755.



15. Obidjonov, U., & Nosirova, D. (2022). YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLI O'RTASIDA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH. *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar*, 1(22), 33-36.
16. Nosirova, D. (2022). OILADA HUQUQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(22), 77-80.
17. Komilov, J., Isaeva, G., Jonzokova, S., Nosirova, D., & Suleymanova, R. (2021). Innovative approaches of psychological training of young sportsmen to the competitions. *Ilkogretim Online*, 20(3).
18. Dilfuza, N. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O 'QUVCHILARIGA XORIJIY TILLARNI O'RGATISH JARAYONIDA TURLI INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 320-325.